

6/2024,  
noyabr-  
dekabr  
(№ 00074)



## **YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR SOLIQ QARZDORLIGI PAYDO BO'LISHI SABABLARI TAHLILI**

**Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

*Email: [ulajaha12@gmail.com](mailto:ulajaha12@gmail.com).*

*ORCID: 0009-0001-1902-1763*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss6/617](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/617)*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada soliqlarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Yakka tartibdagi tadbirkorlarda soliq qarzdorligi qanday holatlarda yuzaga kelishi holatlari ko'rib chiqilgan. Xususan, soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, bugungi kunda soliq qarzdorligiga ega yakka tartibdagi tadbirkorlar tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligini qisqartirish borasida takliflar shakllantirilgan.

**Asosiy tushunchalar:** Soliq organi, soliq to'lovchi, yakka tartibdagi tadbirkor, soliq madaniyati, soliqlar va yig'imlar, soliq qarzdorligi, davlat.

### **АНАЛИЗ ПРИЧИН ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ У ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ**

**Хакимов Улугбек Фуқрат угли**

*Независимый исследователь Ташкентского Ташкентский международного университета Кимё. Доктор философии (PhD) по экономическим наукам.*

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается роль налогов в экономике страны. Рассмотрены обстоятельства, при которых возникают налоговые обязательства у индивидуальных предпринимателей. В частности, были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности. Также анализируются индивидуальный предприниматель, имеющие налоговые обязательства на сегодняшний день. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности у индивидуальных предпринимателей.

**Ключевые слова:** Налоговый орган, налогоплательщик, индивидуальный предприниматель, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство.

### **ANALYSIS OF THE REASONS FOR TAX DEBT FOR INDIVIDUAL ENTREPRENEURS**

**Khakimov F. Ulugbek**

*Independent researcher of Kimyo International University in Tashkent.*

*Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences.*

## **Abstract**

This article examines the role of taxes in the country's economy. The circumstances under which tax obligations arise for individual entrepreneurs are considered. In particular, the opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt were studied. Individual entrepreneurs that have tax obligations today are also analyzed. Based on the above circumstances, proposals have been made to reduce tax debt for individual entrepreneurs.

**Key words:** Tax authority, tax payers, individual entrepreneurs, tax culture, taxes and fees, tax debt, state.

## **Kirish**

Har qanday davlatning moliya tizimida asosiy o'rinni budjet tizimi egallaydi. Har qanday darajadagi budjet daromadlarini yaratuvchi manbalar orasida soliqlar va yig'img'lar asosiy ulushni tashkil etadi va ularni undirish soliq tizimi samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Soliqlar iqtisodiyotning tizimli elementi bo'lib, jamiyatning farovonligini belgilaydi va bugungi kunga qadar mamlakatning iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy faktor hisoblanadi. Shunga ko'ra, soliq organlarining asosiy vazifalaridan biri qonunchilik bilan belgilangan soliqlar va yig'img'larini budjetga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Amaliyotda esa mazkur vazifani hal qilishda katta muammolardan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq qarzdorligi yuzaga kelishidir. Ma'lum bir soliqlarning budjetga kelib tushmasligi yoki kechikib tushishi davlatning moliyaviy resurslari ulushini sezilarli darajada kamaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan xarajatlarni cheklaydi.

Davlatimiz rahbari "... Biz to'g'ri ishlayotgan, ish o'rni yaratayotgan, ilg'or texnologiyalar joriy qilib, yangi mahsulotlarni o'zlashtirayotgan, eksportini oshirayotgan biznes vakillari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz. Lekin, soliqlardan qochib, o'zining majburiyatlarini bajarmasdan kelayotgan qo'shtirnoq ichidagi tadbirkorlarga, biz albatta murossasiz bo'lamiz" deya ta'kidladi. [1]

Haqiqatdan ham, hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatlarini yuritishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ammo, shunga qaramay ular tomonidan soliqlarni o'z muddatida to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik hamda soliq to'lashdan har xil g'ayriqonuniy yo'llar bilan bo'yin tovlash holatlarini amalga oshirilishi mamlakatda soliq qarzdorligini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida, yuqorida qayd etilgan holatlarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini belgilaydi.

## **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Tadbirkorlik subyektlarida soliq qarzdorligi yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim M. Orlovaning fikriga ko'ra, "Soliq qarzdorligi tushunchasiga har xil manbalarda turli xil ta'rif berilgan. Bugungi kunda soliq qarzdorligiga soliqlar va yig'img'lar, sug'urta to'lovlari hamda ular bo'yicha hisoblangan foiz (penya)lar, soliq to'g'risidagi qonunchilik normalarini buzganlik uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarimalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar kiradi. Agar Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida keltirilgan normalardan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qarzdorligi 2 guruhga bo'linadi:

- joriy soliq qarzdorligi;
- soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq qarzdorligi.

O‘z navbatida, har bir guruhda 3 ta turdagi soliq qarzdorligi mavjud.

Joriy soliq qarzdorligiga muddatida deklaratsiya taqdim etmaganligi uchun hosil bo‘lgan qarzdorlik, penya va jarimalar kiradi.

Soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq qarzdorligiga esa, tekshiruvda qo‘shimcha hisoblangan soliqlar, ularga hisoblangan penyalar va jarimalar hamda soliq nazoratining boshqa tadbirlari natijasida hisoblangan soliqlar kiradi” [2]

Xorijiy iqtisodchi olim A. Podkolzinning fikriga ko‘ra soliq qarzdorligi quyidagi omillar ta‘siri natijasida vujudga kelishi mumkin:

“Ijtimoiy, siyosiy hamda tarixiy – bunda, ayrim davlatlarning siyosiy faoliyatiga qarshilik va e‘tirozlarni kelib chiqishi, soliq madaniyatining shakllanmaganligi va bundan tashqari, boshqa bir qancha ijtimoiy holatlar bilan izohlanishi mumkin.


Tashkiliy-huquqiy – mazkur holatda soliq ma‘murchiligi takomillashmaganligi va soliqqa oid huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi, soliq yukini yuqoriligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy – bu omil iqtisodiy o‘zgarish bilan izohlanadi. Bu asosan 2 guruhga bo‘linadi:

- birinchi guruh umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi, yetarli darajadagi pul massasining yo‘qligi, inflatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi yoki xarid qobiliyatining pasayishi;

- ikkinchi guruh o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldi-sotdisiga bog‘liq bo‘lgan holatlar hamda faqat ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo‘lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog‘liq holatlar bilan izohlanadi”. [3]

Mahalliy iqtisodchi olim A. Tangriqulovning fikriga ko‘ra esa, soliq qarzdorligining nazariy jihatdan quyidagi sabablarga ko‘ra (1-rasm) vujudga keladi:



#### **1-rasm. Tadbirkorlik subyektlarida soliq qarzdorligi yuzaga kelishining sabablari [4]**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq qarzdorligi tushunchasiga aniq ta‘rif berilgan, ammo uning mohiyatini tushunish uchun u qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligini o‘rganish lozim. Bu borada tadqiqot ishi olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A. Prigovanning fikriga ko‘ra, «Soliq qarzdorligi tushunchasi 3 guruhga ya‘ni joriy (normal) soliq qarzdorligi, muddati o‘tgan soliq qarzdorligi va shartli soliq qarzdorligiga ajratish mumkin.

Xususan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisoblanishi, shu jumladan soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlari davomida soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan soliq to‘lovchilarga nisbatan moliyaviy jarimalar qo‘llanilishi hamda ularning soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan muddatda to‘lanishigacha bo‘lgan oraliqdagi soliq qarzdorligi joriy soliq qarzdorligi deyiladi.

Muddati o‘tgan soliq qarzdorligi – bu soliqlar va yig‘imlarni, penya va moliyaviy jarimalarni to‘lash muddati o‘tgan yoki soliq organi va korxonada o‘rtasida tuzilgan shartnomada ko‘rsatilgan soliqlarni to‘lash muddati o‘tgan soliq qarzdorliklari tushuniladi.

Shartli soliq qarzdorligi deganda, potensial majburiyatni ifoda etadigan ma’lum bir shartlarda real majburiyatga aylanishi mumkin bo’lgan qarzdorlik tushuniladi. Mazkur qarzdorlik o’tgan operatsiyalar natijasida yuzaga keladi hamda u kelgusidagi hodisalarga bog’liq». [4]

Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim K. Bearning fikriga ko’ra, «soliq to’lovchilarda soliq qarzdorligining paydo bo’lishiga quyidagi asosiy sabablari mavjud:

- adolatli soliq stavkalari yoki moliyaviy jarimalar yo’qligi (soliq stavkalari va jarimalar foizi juda yuqori yoki juda pastligi hamda ular har xil turdagi soliqqa oid huquqbuzarliklar jiddiyligini o’zida aks ettirmaydi);

- soliq organlarida soliq to’lovchiga tegishli ma’lumotlarni olish cheklanganligi (misol uchun banklardan);

- adolatli va yaxshi ishlab chiqilgan soliq qarzdorligini bo’lib-bo’lib to’lash tizimining yo’qligi;

- soliq organining soliq qarzlarni majburiy undirish (bank hisobraqamini to’xtatish, soliq to’lovchining debitorlariga va jismoniy shaxsning aktivlariga qaratish) vakolatiga ega emasligi hamda ushbu muhim funksiyalarni bajarishda sud organlariga qaram bo’lishi;

- soliq organining undirilishi umidsiz bo’lgan soliq qarzdorligini mustaqil ravishda hisobdan chiqarish vakolati mavjud emasligi;


- soliq to’lovchi tomonidan soliq qarzdorligini to’lash muddatini kechiktirish yo’lida sud organiga soliq organing qarori ustidan shikoyat qilishi hisoblanadi. Odatda, sud organiga shikoyat qilish, soliq to’lovchilar uchun ortiqcha xarajat talab etmaydi hamda u soliq organing soliq qarzdorligini undirish to’g’risidagi qarori ijrosini darhol to’xtatishga sabab bo’ladi. Shu asnoda, soliq to’lovchilar shikoyat berish orqali soliq organining soliq qarzdorligini qarori ijrosini osongina to’xtatib qo’yadi». [5]

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma’urchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo’yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Tahlil va natijalar**


O’zbekiston soliq qonunchiligida «Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig’imlarni to’lashi shartligi hamda hech kimga soliqlar va yig’imlarning ushbu Kodeksida nazarda tutilmagan soliqlar va yig’imlarni to’lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas» - ekanligi belgilangan. Shu bilan birgalikda, mazkur Kodeksga muvofiq, «Soliq to’lovchilarga belgilangan soliqlar va yig’imlarni o’z vaqtida hamda to’liq hajmda hisoblab chiqarishi va to’lash majburiyati yuklatilgan». [6] Agar soliq to’lovchilar, hisoblangan soliq va yig’imlarni belgilangan muddatda budjetga o’tkazib bermasa yoki to’lashdan bo’yin tovlasa, u holda ushbu soliq to’lovchilarning budjet oldida soliq qarzdorligi vujudga keladi va soliq organlari tomonidan soliq qarzdorligini belgilangan tartibda undirish choralari ko’rish ishlari boshlanadi. Jumladan, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini undirish sxemasini quyidagi 2-rasm orqali ko’rishimiz mumkin:



2-rasm. Soliqlik qarzdorligini undirish sxemasi [7]

Yuqoridagi rasmdan kelib chiqadigan bo'lsak, yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslar hisoblanadi, ammo soliqqa tortish nuqtai nazardan qaralsa yakka tartibdagi tadbirkorlar xuddi yuridik shaxslar singari soliqlarni to'laydi. Shunga ko'ra agar yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq qarzdorligi paydo bo'lganidan so'ng soliq organi tomonidan 3 ish kunida soliq qarzdorligini uzish to'g'risida talabnoma va qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bankdagi hisobvarag'iga inkasso qo'yiladi. Soliq qarzdorligi vujudga kelganidan boshlab 15 kalendar kun o'tganidan so'ng soliq qarzdorligi qoplanmasa, soliq to'lovchining mol-mulki xatlanadi hamda 60 kalendar kundan so'ng ham qarzdorlik so'ndirilmasa, xatlangan mulk hisobidan soliq qarzdorligi qoplanadi. [8]

Yakka tartibdagi tadbirkorlarda ham yuridik shaxslar singari soliq qarzdorligi bir qancha omillar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, tadbirkorlik subyekti tomonidan soliq hisobotlarining kech taqdim etilishi, soliq tekshiruvlari o'tkazilishi (yakka tartibdagi tadbirkorning yillik aylanmasi yuz million so'mdan oshganda), bankrot bo'lish va soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlash holatlari hamda boshqa shu kabi g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik)lar yakka tartibdagi tadbirkorda soliq qarzdorligi vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Buni ma'lumatimizda 2019-2023-yillar davrida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligi tahlilini quyidagi 3-rasm orqali ko'rib chiqamiz.



3-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligi to'g'risida ma'lumot [9]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, soliq qarzdorligiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni o'sish tendensiyasiga ega. 2019-yilda soliq qarzdorligiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni jami yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining 16,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 30,9 foizigacha oshgan.

Oxirgi 5 yilda soliq qarzdorligiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o'sish sur'ati o'rtacha 28 foizga teng. Shuningdek, 2019-yilda jami soliq qarzdorligi summasi 95,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil ushbu ko'rsatkich 477,9 mlrd. so'm bo'lgan ya'ni 2019-yilga nisbatan soliq qarzdorligi 382,6 mlrd. so'mga oshgan. So'nggi 5 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzdorligi summasining o'sish sur'ati o'rtacha 51 foizni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, 2019-yilda o'zining faoliyatini ma'lum bir sabablarga ko'ra, vaqtincha to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 85,0 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib mazkur holat 139,8 mingtaga yetgan va bu 2019-yilga qaraganda 54,8 mingtaga ko'pdir. Ayniqsa 2020-2021-yillari faoliyatini vaqtincha to'xtatish holatlari keskin oshgan. Buning asosiy sabablaridan biri, so'nggi 2 yilda nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda bo'layotgan pandemiya bilan bog'liqdir. Respublikamizda 2020-yil mart oyidan boshlab pandemiya e'lon qilinganligi uchun tadbirkorlik subyektlari (dorixona va oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) faoliyatlari majburiy to'xtatildi. Ushbu holatlar hamda hukumatiz tomonidan soliq to'lovchilarning soliq qarzdorligi summalarini kechiktirib yoki bo'lib to'lash imkoniyatlarini berilganligi sababli ushbu yillarda soliq qarzdorligi summasi oshishiga sabab bo'lgan.

### **Xulosa**

Yuqoridagi qayd etilganlardan kelib chiqib quyida beriladigan takliflar kelgusida yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligini qisqartirishida ijobiy ta'sir ko'rsatishimi mumkin:

- soliq madaniyatini yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- xorij tajribasi asosida ayrim sohadagi tadborlik subyektlarining soliq qarzdorligidan voz kechish amaliyotidan foydalanish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 18-avgustdagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6561>
2. Orlova M.E., Nasyrova V.I. and Salmina S.V. Tax debt and ways of reducing it. // 3C TIC. Cuadernos de desarrollo aplicados a las TIC. – 2019.
3. Подколзин А.Г. Анализ причин возникновения налоговых недоимок в Российской Федерации. Журнал «Российское предпринимательство» №2 (74) 2006 г.
4. Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo'ziev I., Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanmasi. – T.: «Yangi asr avlodi» nashriyoti – 2010. 51-b.
5. Borgne E.L. and Bear K. Tax Amnesties: Theory, Trends, and Some Alternatives. Definition and Types of Amnesties // International Monetary Fund. – 2008. P-79.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 22-moddasi. <https://lex.uz/docs/4674902>
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalaridan kelib chiqib muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 14 va 15-boblari. <https://lex.uz/docs/4674902>
9. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi 2023-yil.